

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA NUTQINI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Fozilova Odina Nabiyevna

Maktabgachata'limkafedrasi dotsent (FhD)

abobakirovaodina78@gmail.com

Teshaboyeva Shohida Urinboy qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19182097>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning nutq faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ilmiy manbalar asosida yoritiladi,

Kalit so'zlar: davlat talablari, yondashuvlar, renessans, tamoyil, tafakkur, xorijiy tajriba, talim tizimi, ijtimoiy faol shaxs, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы развития речи у детей дошкольного возраста. На основе научных источников выделены факторы, влияющие на развитие речевой деятельности детей в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова: государственные требования, подходы, эпоха Возрождения, принцип, мышление, зарубежный опыт, система образования, социально активная личность, педагогические навыки.

Abstract. This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of the development of speech in preschool children. The factors influencing the development of children's speech activity in the process of preschool education are highlighted based on scientific sources,

Keywords: state requirements, approaches, Renaissance, principle, thinking, foreign experience, education system, socially active person, pedagogical skills.

KIRISH

O'zbekiston respublikasidagi olib borilayotgan ta'lim soxasidagi isloxatlar inson omiliga qaratilgan bo'lib, unda barkamol shaxs tarbiyasi birinchi o'rinda turadi. Mamlakatimizda maktabgacha talim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga yetdi. Uchinchi renessansning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim uzluksiz talim tizimiga o'tdi. Bu tizimning asosiy maqsadi yosh avlodni sog'lom va rivojlangan bakamol shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-son qarori tasdiqlangan bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimini joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar, maktabgacha ta'lim tizimini maqsad va ustuvor yo'nalishlari, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim tarbiyani tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talblariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tavsiyalar berildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolajonlarni tarbiyalashda jamoaviy sa'yi – harakatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda tarbiyachilar avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonunyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi bilan bir qatorda umumkasbiy va mutaxassislikka oid bilimlar bilan qurollangan bo'lishi shart. Har bir pedagog umumiy pedagogika va umumiy psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi, maktabgacha pedagogika, pedagogik mahorat, maktabgacha ta'limda pedagogik

texnologiyalar, jismoniy tavrbiya, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarning mazmun mohiyatini bilishi ularga bolalarni tarbiyalashda qo'l keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yilgan. Shuni inobatga olgan holda bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, aqliy qobiliyatini o'stirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy-aqliy tamoyillar asosida tarbiyalash, Ona vatanni sevish va uni asrashga o'rgatib borish, kishilik jamiyatiga munosabatini to'g'ri shakllantirish, jamiyatga ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalab berish, kabilar tarkib toptiriladi. Shuningdek, bolalarning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy –hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonini rivojlantirish, ijodiy rivojlanish takomillashtiriladi. Biz bilamizki, Davlat talablari asosida yosh davrlar quydagi bosqichlarga o'z ichiga oladi:

Go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha). Bu davrda bolada nutq shakllana boshlaydi, ya'ni gu-gu, bu-bu, ma-ma boshqa bo'g'inlarni talaffuz qilib, o'zini emotsiyalarini tovushlar orqali bildiradi. Erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha). Kundalik hayotda bajariladigan harakatlarni anglatuvchi so'zlar manosini tushunadi, kattalar nutqiga taqlid qiladi, so'zlar ma'nosini tushunadi O'rta maktab yoshi(4 yoshdan 5 yoshgacha).Boshlangan hikoyani davom ettira oladi,didaktik va so'z o'yinlarini o'ynaydi, gaplar tuzadi: "sotuvchi savzavotlarni sotiyapti","shifokor kasalni davolayapti ",turli ohangdagi so'zlarni imo-ishoralar yordamida nutqida ishlatadi.

Maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha). So'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi, so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi, nutqida xorijiy so'zlarni qo'llaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishning har bir sohasi o'z ichiga indikatorlarni oladi. Barcha sohalarni ichida nutqni rivojlantirish ularni faoliyati muloqoti bilan bog'liqdir. Bolalarning nutqini rivojlanishida muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Mashhur psixolog va pedagog D.B.Elkonin bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlagan tadqiqotida bolaning hayotiy sharoitlari va tarbiyalanishi nutqiy faoliyatini oshirgan. V.Loginaning malumotlariga ko'ra esa 3 yoshda bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshdagi bolaning aktiv lug'atida 3000-3500 ta so'zni o'z ichiga oladi. L.S.Vigotskiy aytganidek : nutq juda erda bolaning va atrofdagilarning amaliy faoliyatini bilan bog'lanadi, erda amaliy tafakkur vositasiga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda bola o'zining harakatlari, ularda ishlatayotgan buyumlar haqida hech kimga murojat qilmay aytib beradi. S.N.Karpova tadqiqotlariga ko'ra; 3-7 yoshdagi bolalarda nutqni tahlil qilish va so'zlarni tovush tarkibi manosini tushuntirish orqali rivojlantirib borilganda bolada nutq to'liq shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayoning muhim tarkibiy qismidir. 3-7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarda nutq faoliyati jadal rivojlanib, ularning tafakkur, muloqot madaniyati va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlardan samarali foydalansa bolalarning nutqiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti DTS 22.12.2020 802-sonli qaror.

2. Z.Nishonova , G. Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi-Toshkent, 2006
3. D.R.Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi –Tohkent,2018.
4. M.Q.Jabborova Nutq o'stirish uslubiyoti. Darslik. FDU"nusha ko'paytirish bo'limi" 2025 yil
5. M.Q.Jabborova Turli yosh guruhlarda bolalarni ijtimoiy moslashuvchanligini tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishda ta'limiy faoliyatlarni to'g'ri tashkillashning ahamiyati. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi.11-son_10-to'plam_Dekabr-2023<http://web-journal.ru/>